

INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL

SCIENCE AND INNOVATION



SPECIAL ISSUE “SUSTAINABLE FORESTRY”

NOVEMBER 2023

International Scientific Journal SCIENCE AND INNOVATION

SPECIAL ISSUE "SUSTAINABLE FORESTRY"

November, 2023

This issue was published on the basis of the materials of the III international scientific and practical conference "Sustainable Forestry" held in cooperation with Tashkent State Agrarian University on November 3-4, 2023.

Tashkent 2023

TOG' QUDDUSI (STACHYS BETONICAEFLORA) NI URUG' MAHSULDORLIGI**¹Yarmuxammedov Jasur Mansurovich ²Zaribboyev Ma'rufjon Oybek o'g'li****¹Biotexnologiya va oziq-ovqat xavfsizligi kafedrasi o'qituvchisi Buxoro davlat universiteti, Buxoro****²Biotexnologiya va oziq-ovqat xavfsizligi kafedrasi talabasi Buxoro davlat universiteti, Buxoro****¹jasur_yarmuhammedov93@mail.ru ²marufjonzaribboyev77@gmail.com****<https://doi.org/10.5281/zenodo.10080610>**

Annotatsiya. *Tog' quddusining (Stachys betonicaeflora) gullash davomiyligi 1,5-2 oy bo'lib, u iqlim sharoitlariga bog'liqdir. Havo haroratining oshishi va nisbiy namligining kamayishi bilan gullash jadalligi ortadi. Toshkent sharoitida generativ davrining davomiyligi 65-70 kunni tashkil etdi.*

Kalit so'zlari: o'sish, rivojlanish, gullash biologiyasi, urug' mahsuldorligi, ko'paytirish usullari.

Kirish. Yer yuzida dorivor o'simliklarning 10-12 ming turi bo'lib, shu jumladan 1000 dan ortiq o'simlik turlarining kimyoviy, farmokologik va dorivorlik xossalari tekshrilgan sintetik preparatlarni uzoq muddat qabul qilish inson organizmida turli ko'ngilsiz holatlarni keltirib chiqaradi. Dorivor o'simliklarning tabiiy xom-ashyo vositalaridan tayyorlangan tabiiy preparatlar organizmga sekin ta'sir etsa ham salbiy oqibatlari deyarli kuzatilmaydi. Sintetik preparatlar yaratish borasidagi yutuqlarga qaramay, tibbiyot amaliyotida tabiiy xom ashyolar asosida olingen dori shakllarining qo'llanilishi ortib bormoqda. Dori vositalarining zamonaviy ro'yxatida dorivor o'simliklardan olingen preparatlar qariyib 40 foizni tashkil qiladi. Ayrim kasallikkarda qo'llaniladigan dori vositalarining 80 foizga yaqini o'simlik xom ashyolaridan olinmoqda (yurak, qon-tomir kasallikkleri-ni davolash vositalari). Mutaxassislarning fikricha, yaqin yillarda ularning ulishi ortishi kutilmoqda. Buning sababi ularning yumshoq ta'sir ko'rsatishi, organizm tomonidan yaxshi o'zlashtirilishi hamda uzoq muddat qabul qilish mumkinligidir. Hozirgi shiddat bilan rivojlanish davrida Respublikamizda ham endemik va introdutsent dorivor o'simliklarning bioekologik xususiyatlarini o'rganish, yalpi ko'paytirish agrotexnikasini ishlab chiqish hozirgi kunning dolzarb muammolaridan biridir.

Markaziy Osiyo va O'zbekistonda Stachys turkumining uchraydigan ayrim turlarining introduktsiya sharoitlaridagi xususiyatlari I.V. Belolipov, tomonidan o'rganilgan. Ularning turli ekologik sharoitlardagi bioekologik va fiziologik xususiyatlari respublikamiz tuproq-iqlim sharoitlarida kam o'rganilgan, Eshmuradov R.A. tomonidan 2012 yil Tog' quddusi (*Stachys betoniciflora Rupr.*) o'simligi respublikamizda ilk bor o'rganilgan.


Tadqiqot metodlari. O'simliklarning gullash biologiyasi, ularning sutkalik hamda mavsumiy gullash dinamikasini o'rganish A.N. Ponomarev [3], H.Q. Qarshiboev va O.A. Ashurmetov [5] larning ko'rsatmalari asosida olib borildi. O'simliklarning potensial (PUM) va haqiqiy (HUM) urug' mahsuldorligi O.A. Ashurmetov [4] tavsiyalari asosida aniqlandi. Mahsuldorlik koefitsienti (Mk) esa HUMning PUMga % hisobidagi nisbati asosida hisoblab chiqarildi.

Tadqiqot natijalari. O'simlikning urug' mahsuldorligi shu turning istiqbolini belgilovchi omil hisoblanadi. Har qanday turning biologik tavsifini berish uchun uning urug' mahsuldorligini aniqlash talab qilinadi. Bu esa mazkur turni tabiatda va iqlimlashtirilgan sharoitda qo'llash imkoniyatini ko'rsatadi.

O'rganilgan o'simliklar urug'larining ichki tomoni uchta qirrali, tashqi tomoni qavariq shakldagi yong'oqcha. *Stachys betonicaeflora* da urug'larining rangi to'q jigarrang tusda bo'lib (3.13-rasm), *Stachys betonicaeflora*

da urug'larining uzunligi $3,9 \pm 0,14$ mm, eni $2,4 \pm 0,09$ mm ni tashkil etdi (3.3-jadval). 1000 dona urug'ining massasi *Stachys betonicaeflora* da $1,35 \pm 0,05$ g ga teng bo'ldi.

Biz adabiyotlardan *Stachys* turkumi turlarining urug' mahsuldarligi to'g'risida ma'lumotlar topa olmadik. Shu sabab, Toshkent sharoitida 2020-2021 yillarda o'rganilgan o'simliklarda potensial urug' mahsuldarligi (PUM) va haqiqiy urug' mahsuldarligi (HUM) ni aniqladik.



3.13-rasm *S.betonicaeflora* urug'larining ko'rinishi (mm)

3.3-jadval *Stachys* urug'larining morfologik ko'rsatkichlari

| O'simlik nomlari | Urug'larning rangi | O'lchamlari (mm) | | Urug'larning absolyut massasi, g. |
|--------------------------|--------------------|------------------|----------|-----------------------------------|
| | | uzunligi | eni | |
| <i>S. betonicaeflora</i> | Jigarrang | 3,9±0,14 | 2,4±0,09 | 1,35 ±0,05 |

O'rganilgan o'simliklarning urug' mahsuldarligini o'rganish uchun har bir turdan o'ntadan o'simlik olindi. Har bir o'simlikdagi to'pgullar soni, har bir to'pguldagi gullar soni hamda bir o'simlikdagi gullar soni (PUM) hisoblab chiqildi. Shuningdek, bir to'pguldagi mevalar soni, bir o'simlikdagi urug'lar soni (HUM) hamda urug' mahsuldarligi koeffitsienti hisoblandi.

Toshkent sharoitida *Stachys betonicaeflora* ning bita generativ novdasida 2020 yil (n=10) PUM $680,8\pm25,8$ donani, HUM $261,2\pm12,2$ donani, mahsuldarlik koeffitsienti (Mk) esa $38,4\pm2,6\%$ ni tashkil qildi. 2021 yil (n=10) PUM $688,9\pm26,1$ donani, HUM $278,3\pm13,9$ donani, mahsuldarlik koeffitsienti (Mk) esa $40,4\pm2,7\%$ ni tashkil qildi. (3.4-jadval).

3.4 – jadval Toshkent sharoitida *Stachys betonicaeflora* o'simliklari bitta generativ novdasining o'rtacha urug' mahsuldarligi (n=10)

| O'simlik turi | Yillar | Urug' mahsuldarligi, dona | | Mahsuldarlik koeffitsienti, Mk % |
|--------------------------|--------|---------------------------|----------------|----------------------------------|
| | | PUM | HUM | |
| <i>S. betonicaeflora</i> | 2020 | $680,8\pm25,8$ | $261,2\pm12,2$ | $38,4\pm2,6$ |
| | 2021 | $688,9\pm26,1$ | $278,3\pm13,9$ | $40,4\pm2,7$ |

Ikki yillik tajriba natijalariga ko'ra, *S. byzantina* o'simligining haqiqiy urug' mahsuldarligi koeffitsienti *Stachys betonicaeflora* o'simligining haqiqiy urug' mahsuldarligi ko'rsatkichiga nisbatan ancha yuqori (17% gacha) bo'lishi aniqlandi.

Urug'larning sifat ko'rsatkichlari yaxshi bo'lib, hasharotlar bilan zararlanganligi kuzatilmadi.

Shunday qilib, o'rganilgan staxis turkumi urug'larining unishiga haroratning ta'siri turlicha bo'lishi kuzatildi. Bu tafovutlar o'rganilgan turlarning biologik xususiyatlariga bog'liq bo'lsa kerak, chunki *Stachys betonicaeflora* tabiiy holda tog' yonbag'irlarida o'sadi. Fenologik kuzatuvlarning natijalariga ko'ra ikki xil ekologik sharoitlarda o'sgan o'simliklarning morfologik o'lchamlari turlichaligi aniqlandi.

Xulosa qilib aytganda, urug'larning laboratoriya sharoitida unuvchanligi uchun qulay haroratni aniqlash maqsadida tajribalar turli haroratlar (+15, +20, +25°S) da olib borildi. Laboratoriya tajribalari natijasida, urug'larning unuvchanligi uchun qulay harorat *S. betonicaeflora* uchun +15°S ekanligi aniqlandi.

REFERENCES

1. Mirziyoev Sh.M. "Taqnidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak" Toshkent : O'zbekiston, 2017. – 104 b
2. Vazirlar Maxkamasi 2017 – yil 21 – avgust № 114 – yig'ilish bayonnomasining EDO – 03 – 421. sonli qarori.
3. Пономарев А.Н. Изучение цветения и опыления растений / Полевая геоботаника. В 5-и т. – М.–Л.: АН СССР, 1960. Т. 2. – С. 9-11.
4. Ashurmetov O.A., Karshiboev X.K. Semennoe razmnojenie bobovyx rasteniy v aridnoy zone Uzbekistana. – Tashkent: Fan, 2002. – 204 s.
5. Қаршибаев Х.К., Ашурметов О.А. Ўсимликларнинг ўсиши ва ривожланиши: Методик кўрсатмалар. – Тошкент, 1989. – 22 б.
6. Eshmuratov R.A., Safarov K.S. Introduksiya sharoitidagi *Stachys L. turkumi* ayrim turlarining sutkalik va mavsumiy gullah dinamikasi // O'zbekiston florasi bioxilma-xilligi va undan oqilona foydalanish muammolari: Respublika ilmiy konferensiyasi materiallari. – Samarkand, 2011. – B. 18-20.
7. Eshmuratov R.A., Safarov K.S., Nikitina E.V. Turli introduksiya sharoitlarida *Stachys L. turkumi* ayrim turlarining fiziologik va biokimiyoviy xususiyatlari // Xorazm vohasi sharoitida yer-suv resurslaridan samarali foydalanish va tuproq melioratsiyasi muammolari: Respublika ilmiy anjumani materiallari. – Xiva, 2011. – B. 12-15.
8. Kononkov P.F., Vasyakin I.N. Пищевые и фармакологические свойства стахиса и технология его возделывания / Науч. тр. по селекции и семеноводству: Всерос. НИИ селекции и семеноводства овощных культур. – Москва, 1995. Т.2. – С. 301-315.

| | |
|--|-----|
| Яриева Малика Алишер кызы, ИНВЕНТАРИЗАЦИЯ ДРЕВЕСНЫХ НАСАЖДЕНИЙ НА ТЕРРИТОРИИ НАЦИОНАЛЬНОГО УНИВЕРСИТЕТА УЗБЕКИСТАНА | 165 |
| Xamroyev Xusen Fatullayevich , Saraboyeva Iroda Shokir qizi, OLEANDR NERIUM QALAMCHALARINI TAYYORLASH MUDDATI VA USULLARINING ILDIZ OLISHGA TA'SIRI | 172 |
| Акнишина Наталья Геннадьевна , Халмурзаева Атыргуль Исааковна, Ализов Азамат Атакулович, БИОЛОГО-ПОЛИНОЛОГИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ПРЕДСТАВИТЕЛЕЙ СЕМЕЙСТВА КИПАРИСОВЫХ (CUPRESSACEAE), ШИРОКО ИСПОЛЬЗУЕМЫХ В РАЗВИТИИ ГОРОДА ТАШКЕНТА | 176 |
| Xolmurotov Mansur Zaripbayevich , Sobirjonova Mushtarlyi, SURIYA ATIRGULI (HIBISKUS SYRIACUS) KO'CHATLARINI PARVARISHlashda SUG'ORISH ME'YORLARI VA MINERAL O'G'ITLARNI QO'LLASH | 189 |
| Чоршанбиеев Фарход Махматмуродович , Қайимов Абдихалил, MAGONIYA (MAHONIA) O'SIMLIGINING BIOEKOLOGIYASI VA MANZARAVIYLIGI | 193 |
| Xamroyev Xusen Fatullayevich , Saraboyeva Iroda Shokir qizi, OLEANDR NERIUM URUG'LARINING LABORATORIYA SHAROITIDA UNUVCHANLIGI | 198 |
| Н.С. Сатторова , Да.Хамраева, Х.Ф. Хамроев, CALYCANTHUS L. ТУРКУМИ ВАКИЛЛАРИНИНГ ИНТРОДУКЦИЯСИ ВА ФЕНОЛОГИЯСИ | 202 |
| N.S. Sattorova , D.A.Hamrayeva , X.F. Xamroev, CALYCANTHUS L. TURKUMI TURLARINI VEGETATIV KO'PAYTIRISH NATIJALARI | 206 |
| Shukurova Go'zal Botirbek qizi , NORMUSHIK (EUONYMUS) BUTASINI QALAMCHALARIDAN KO'PAYTIRISH. | 209 |
| Qaysarov Vahob To'xtamishevich , Xaydarova Samira Akram qizi, GAMANTHUS GAMOCARPUS (MOQ.) BUNGE VA HALIMOCNEMIS C.A. MEY. TURKUMI AYRIM TURLARI MEVASINING STRUKTURAVIY TUZILISHI | 214 |
| Ортиков Умиджон Дониёрович , Газизова Диляна Комилжоновна, ВЫРАЩИВАНИЕ ГОЛУБИКИ В КАЧЕСТВЕ ЛЕКАРСТВЕННОЙ КУЛЬТУРЫ В УСЛОВИЯХ УЗБЕКИСТАНА GROWING BLUEBERRIES AS A MEDICINAL CROP IN UZBEKISTAN | 217 |
| Колчанова - Зейберг Екатерина Андреевна , Лукьянова Светлана Валерьевна, РОД КЕНДЫРЬ - APOCYNUM: ПЕРСПЕКТИВЫ ВЫРАЩИВАНИЯ В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ. | 221 |
| Ф.Ёдгорова , М.Алимжанова, АНТАГОНИСТИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА МЕСТНЫХ ШТАММОВ АКТИНОМИЦЕТОВ- ОБИТАТЕЛЕЙ ПОЧВ АНДИЖАНСКОЙ И НАМАНГАНСКОЙ ОБЛАСТЕЙ. | 227 |
| Yarmuxammedov Jasur Mansurovich , Zariboyev Ma'rufjon Oybek o'g'li, TOG' QUDDUSI (STACHYS BETONICAFLORA) NI URUG' MAHSULDORLIGI | 232 |
| Абдиназарова Г.Ж , Есемуратова Р.Х, Торениязова С.Е, ИБН СИНО АСАРЛАРИДА КЕЛТИРИЛГАН ДОРИВОР ЎСИМЛИКЛАР | 235 |
| Dustiyorov Mehroj Dilshodovich , Qaysarov Vahob Tuxtamihevich, AERVA LANATA L. URUG'LARINING AYRIM BIOLOGIK XUSUSIYATLARI | 239 |
| Berdibaeva Dilfuza Bazarbaeva , Atabaeva Gulnoza Shaakbar qizi, STUDY OF ANATOMICAL STRUCTURE OF LEAF DIOSCOREA NIPONICA MAKINO. | 243 |
| Ayasov Xushbek G'aybullayevich , Xaydarova Samira Akram qizi, IMPATIENS BALSAMINA L. O'SIMLIGINING MAVSUMIY RIVOJLANISH MAROMI. | 247 |
| Аметова Санаргул Бердимуратовна , КАМ ШЎРЛАНГАН ТУПРОКЛАРДА ЯПОН САФОРАСИ (SOPHORA JAPONICA) КЎЧЧАТЛАРИНИЙ УСИШИ ВА РИВОЖЛАНИШИГА МИНЕРАЛ ЎГИТЛАРНИНГ ТАЪСИРИ | 252 |
| Рузметов Умид Исмагилович , Сафарова Ниора Каримжоновна, ASTERACEAE ОИЛАСИГА МАНСУБ ДОРИВОР КИЗИЛ ЭХИНАЦЕЯ ЎСИМЛИГИНИ ЕТИШТИРИЛДА МИНЕРАЛ ЎГИТЛАРНИНГ САМАРАДОРЛИГИ | 257 |
| Узугова Сафаргул Файзулаевна, УДК: 581.6: 631.5 ОЧ ТУСЛИ БЎЗ ТУПРОКЛАР ШАРОИТИДА ОЗИҚА ЭЛЕМЕНТЛАРНИНГ (АЗОТ, ФОСФОР, КАЛИЙ) ДОРИВОР МАВРАК ЎСИМЛИГИ ТОМОНИДАН ЎЗЛАШТИРИЛШИ | 263 |
| Якубов Шамид Муродзакулович , Султонов Комолиддин Садриддинович , Эргашева Ирода Толивон кызы, ДОРИВОР МАДОР (ALLIUM TSCHIMGANICUM B. FEDTSCH) ЎСИМЛИГИНИ ЕТИШТИРИЛШИНГ АҲАМИЯТИ | 267 |
| Шаусманова Р.М, LYSIUM L.TURKUM TURLARINING TABIATDA TARКАЛИШИ ВА СИСТЕМАТИКАСИ | 271 |
| Rahmatov A.А , Maxkamov T.X, O'ZBEKISTON FLORASIDA TARQALGAN NEPETA L. (LAMIACEAE) TURKUMI TURLARI VA ULARNING DORIVORLIK XUSUSIYATLARI | 274 |
| Asqarova Nasiba Qurbanoy qizi , Axmedov Egamyor Toshboyevich, ORIGANUM MAJORANA NING ETNOTIBBIY QO'LLANILISHI VA FARMAKOLOGIK XUSUSIYATLARI | 279 |
| Rustam Muydinov Xasan o'g'li , Yarmuhammedov Jasur Mansurovich, Muxiddinova Nafisa Sirojiddin qizi, SAMARQAND BO'ZNOCH (HELICHRYSUM MARACANDICUM POPOV EX KIPR.) YETISHTIRISH AGROTEXNOLOGIYASI. | 285 |
| Rustam Muydinov Xasan o'g'li , Shokirova Shoxsanam Azamatjon qizi, DORIVOR QASHQARBEDA (MELLilotus officinalis DESC) O'SIMLIGINI YETISHTIRISH AGROTEXNOLOGIYASI. | 291 |
| Umurzakova Nargisaxon Muxtarovna , Nazirov Umarxo'ja Xayrullo og'li, EKOTIZIMDA O'RMONLARNING RO'LI VA O'ZBEKISTON SIYOSATIDA O'RMONLARGA AHAMIYAT | 296 |
| Shermatov Malikjon Raxmatjonovich, FARG'ONA VODIysi AGROEKOTIZIMLARI TANGACHAQANOTLI HASHAROTLARINING TROFIK ALOQLARI | 300 |
| Нафасов Зафар Нурахмадович , Ҳалиев Ҳашим Қасимович, Обиджанов Дилшод Аҳмед хужа угли, НАУЧНЫЕ ОСНОВЫ ВЫБОРА СУЩЕСТВЕННЫХ ФАКТОРОВ ПРИ ПРОГНОЗИРОВАНИИ И РАЙОНИРОВАНИИ ЛЕСНЫХ ТЕРРИТОРИЙ | 305 |
| Зупаров Миракбар Абдулович , Камилов Шухрат Ганиевич, Мамин Мухиддин Саламович , Бусинов Мухиддин Лазиз угли, ИСПЫТАНИЕ ФУНГИЦИДА ТАЧИГАЗОЛ 30% В.Р.К. ПРОТИВ МУЧНИСТОЙ РОСЫ, КОРНЕВЫХ ГНИЛЕЙ И ПОЧВЕННЫХ БАКТЕРИАЛЬНЫХ ЗАБОЛЕВАНИЯМ ОГУРЦА | 312 |
| Djurayeva Perdekul Saidovna , O'RMONLARNI ASRASH - INSONIYATNING BURCHIDIR | 317 |
| Raxmonov Ubaydullo Normammadovich , Xodjamqulova Sitora Sulaymanova, Soatov Tolib Toyir o'g'li, TOKNING ANTRAKNOZ KASALLIGINI QO'ZG'ATUVCHI ZAMBURUG' (LEOSPORIUM AMPELOPHAGUM) NING TUR TARKIBI VA BIOLOGIYASI | 321 |
| Yusupov Baxriddin Bobonazarovich, TABIIY MUHOFAZA ETILADIGAN HUDDIDLARDA EKOTURIZIMNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI (KITOB GEOLOGIK QO'RIQXONASI MISOLIDA) | 326 |
| Жураев Жавлон Мирзатиллаевич , Асадуллаева Дилнозохон Асадуллоҳ кызы, ЛЕКАРСТВЕННЫЕ СВОЙСТВА И ПРИМЕНЕНИЕ ЕЖЕВИКИ СИЗОЙ В ПОБОЧНЫХ ЦЕЛЯХ (RUBUS CAEUS) | 334 |
| Jurayev Javlon Mirzatillayevich, TOSHLOQ YERLARDA O'SUVCHI ASALSHIRALI BUTALAR BIOKOLOGIYASI VA ULARNING TARQALISH AREALLARI. | 338 |